



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
SAMARQAND VILOYATI FILIALI**

Manzil: 140131, Samarqand shahar, Gagarin ko'chasi, 27-uy, Tel: 66-229-38-29

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-01/16-1

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi "JURU ENERGY CONSULTING"
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATga berildi.
STIR: 303454532

Davlat ekologik ekspertizasi obyekti: Samarqand viloyati Nurobod tumanida joylashgan.

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: 303454532
STIR: "JURU ENERGY CONSULTING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: BUMATOVA XURSHEDA MERGANOVNA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning III toifa toifasining 8-bandiga mansub.**

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**
Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi:

Berilgan sana: 27.02.2024

Amal qilish muddati: 27.02.2027

*Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining **ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar** bajarilishi shart hisoblanadi.*

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.



**Direktor
J.Po'lotov**

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi

Obyekt bo'yicha:

Pastdarg'om tumani hududida 500/220 kVt quvvatga ega yangi "Nurobod" podstantsiyasi va Nurobod va Pastdarg'om tumanlari hududidan o'tuvchi 71 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish liniyasini tortish uchun ishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risida bayonot" (AMTTB) loyihasi

Buyurtmachi:

"JURU ENERGY CONSULTING" MAS'ULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT

STIR

303454532

Toifa:

III toifa

Loyihachi tashkilot:

303454532

Ekspert:

BUMATOVA XURSHEDA MERGANOVNA

"Davlat ekologik ekspertizasi markazi" Samarqand viloyati filialiga Pastdarg'om tumani hududida 500/220 kVt quvvatga ega yangi "Nurobod" podstantsiyasi va Nurobod va Pastdarg'om tumanlari hududidan o'tuvchi 71 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish liniyasini tortish uchun ishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risida bayonot" (AMTTB) loyihasi takroran taqdim etildi.

Ushbu obyektning "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risida bayonot" (AMTTB) loyihasi avval 2024-yilda ishlab chiqilgan va davlat ekologik ekspertizasining 2024-yil 3-yanvardagi 01-01/16-1-sonli xulosasini olgan. Ushbu xulosada quyidagi kamchilik va noaniqliklar ko'rsatilib, qayta ishlab chiqish uchun qaytarilgan:

Rejalashtirilayotgan Pastdarg'om tumani hududida 500/220 kVt quvvatga ega yangi "Nurobod" podstantsiyasi va Nurobod va Pastdarg'om tumanlari hududidan o'tuvchi 71 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish liniyasi qurilishi viloyatning ikki tumani hududida rejalashtirilayotganligini, ushbu obyekt viloyat ahamiyatiga ega elektr uzatish liniyasi ekanligini inobatga olgan holda, obyektning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning toifasini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi "Davlat ekologik ekspertizasi markazi"ga murojaat etib, obyektning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning toifasini aniqlash lozimligini bildiradi.

Qurilish jarayonida yerlarning holati buzilishini inobatga olgan holda, elektr liniyalari qurilishida buzilgan yerlarni rekonstruksiya qilish va tiklash tadbirlari ishlab chiqilib, viloyat ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bilan kelishish shart.

Qayta taqdim etilgan loyihaga avval ko'rsatilgan kamchiliklar bo'yicha quyidagilar kiritilgan:

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi "Davlat ekologik ekspertizasi markazi"ning 2024-yil 7-fevraldagi 02-02/4-126-sonli xati ilova qilingan, unga ko'ra, rejalashtirilayotgan Pastdarg'om tumani hududida 500/220 kVt quvvatga ega yangi "Nurobod" podstansiyasi va Nurobod va Pastdarg'om tumanlari hududidan o'tuvchi 71 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish liniyasi atrof muhitga ta'sir ko'rsatishning III-toifasiga mansub. (52 va 8-bandlar).

Qurilish jarayonida yerlarning holati buzilishini inobatga olgan holda, elektr liniyalari qurilishida buzilgan yerlarni rekonstruksiya qilish va tiklash tadbirlari ishlab chiqilib, viloyat ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bilan kelishilgan va loyihaga ilova qilingan.

"ACWA Power" kompaniyasi tomonidan qurilishi mo'ljallangan yangi "Nurobod" nimstansiyasi Pastdarg'om tumanida, ushbu nimstansiyasidan Nurobod tumanida joylashgan FES 500 MVt "SAZAGAN SOLAR 2" quyosh-foto stansiyasigacha 71 km. uzunlikdagi 220 kV elektr liniyasi Nurobod va Pastdarg'om tumanlari hududida joylashadi.

Yangi "Nurobod" nimstansiyasi qurilish uchun tanlangan maydon Pastdarg'om tumani, "Do'stlik-3" massivi hududida bo'lib, qurilish uchun 54,5 gektar er maydoni tanlangan. Nimstansiyaning loyihaviy quvvati 500/220 kVni tashkil etadi. "Nurobod" nimstansiyasining geografik koordinatalari:

- | | |
|----------------------------------|-------------------------------|
| 1) 39°57'31.79" shimoliy kenglik | 66°74'15.71" sharqiy uzunlik, |
| 2) 39°57'74.45" shimoliy kenglik | 66°74'04.99" sharqiy uzunlik, |
| 3) 39°57'98.65" shimoliy kenglik | 66°75'31.05" sharqiy uzunlik, |
| 4) 39°57'55.45" shimoliy kenglik | 66°75'42.44" sharqiy uzunlik. |

"Nurobod" nimstansiyasi qurilishi uchun tanlangan maydon aholi yashash joylaridan uzoq, bo'sh maydonda joylashgan. Maydon chegaralari: shimoldan va shimoli-sharqdan - bo'sh maydon, so'ngra 280 metr masofada ekin maydonlari, fermer xo'jaligi yerlari, sharqdan - bo'sh maydon, so'ngra 120 metrda issiqxona, g'arbdan- 45 metr uzoqlikda energiya to'plash akkumulyatorlar tizimi (BESS) hududi, janubdan – obyekt chegarasidan 16 metrda tuproq yo'l, so'ngra bo'sh erlar. Eng yaqin aholi obyekt chegarasidan 2,2 km. A-378 avtomagistrali janub tomonda 4,0 km uzoqlikda joylashgan. Tanlangan maydonda bino va inshootlar yo'q, bo'sh maydondan iborat. Yangi "Nurobad" nimstansiyasidan tortib ketilishi rejalashtirilgan elektr liniyasi chuqurligi 2 metr, eni 1,5 metr bo'lgan yer osti transheyasida quriladi. Obyekt yaqinida ochiq suv havzalari yo'q. Yangi "Nurobod" nimstansiyasi tarkibida 6 dona avtotransformatorlar, o'z ehtiyojlari

uchun 2 dona transformator, ORU 500 kV, ORU 220 kV, nimstansiyaning boshqarish umumiy binosi (xodimlar, himoya vositalari, telemexanika, aloqa o'rnatish va boshqarish), ta'mirlash brigadalari uchun yordamchi binolar, yong'inga qarshi nasos stansiyasi, yong'inga qarshi sig'irlar 2x400 m³; hajmi 300 m³ bo'lgan moy saqlash sig'imi, hojatxona, qorovulxona, Nimstansiya hududida qurilish ostidagi maydon - 71044 m², qattiq qoplamali maydon - 55590 m², ko'kalamzorlashtirilgan hudud - 7000 m².

Rejalashtirilayotgan elektr liniyasining geografik koordinatalari:

1) 39°42'69.36" shimoliy kenglik	65°97'45.95" sharqiy uzunlik,
2) 39°42'69.07" shimoliy kenglik	65°98'83.70" sharqiy uzunlik,
3) 39°43'68.87" shimoliy kenglik	66°17'61.58" sharqiy uzunlik,
4) 39°41'86.21" shimoliy kenglik	66°25'61.05" sharqiy uzunlik;
5) 39°44'78.35" shimoliy kenglik	66°30'91.81" sharqiy uzunlik,
6) 39°47'73.86" shimoliy kenglik	66°33'68.79" sharqiy uzunlik,
7) 39°47'92.28" shimoliy kenglik	66°33'61.62" sharqiy uzunlik,
8) 39°48'88.68" shimoliy kenglik	66°34'71.74" sharqiy uzunlik;
9) 39°50'05.40" shimoliy kenglik	66°34'91.47" sharqiy uzunlik,
10) 39°50'56.17" shimoliy kenglik	66°37'14.31" sharqiy uzunlik,
11) 39°50'39.63" shimoliy kenglik	66°38'04.66" sharqiy uzunlik,
12) 39°50'23.48" shimoliy kenglik	66°38'24.05" sharqiy uzunlik.
13) 39°53'60.15" shimoliy kenglik	66°52'60.24" sharqiy uzunlik,
14) 39°53'75.58" shimoliy kenglik	66°52'60.87" sharqiy uzunlik,
15) 39°55'24.60" shimoliy kenglik	66°54'53.83" sharqiy uzunlik,
16) 39°57'11.11" shimoliy kenglik	66°62'93.88" sharqiy uzunlik;
17) 39°56'11.45" shimoliy kenglik	66°69'69.91" sharqiy uzunlik,
18) 39°56'95.98" shimoliy kenglik	66°70'75.29" sharqiy uzunlik,
19) 39°56'55.71" shimoliy kenglik	66°72'97.34" sharqiy uzunlik,
20) 39°56'70.91" shimoliy kenglik	66°74'08.99" sharqiy uzunlik.
21) 39°57'31.75" shimoliy kenglik	66°74'21.00" sharqiy uzunlik.

O'zbekiston Respublikasining 0236-07-sonli sanitariya-gigiena me'yor qoidalarida rejalashtirilayotgan 220 kV elektr liniyasining sanitar himoya mintaqasi trassaning har ikkala tomonidan 15 metr deb ko'rsatilgan. Ko'rib chiqilayotgan elektr liniyasining har ikkala tomonidan uning himoya zonasi saqlangan.

Obyekt joylashgan hududning fizik-geografik va iqlim holati xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risida bayonot" (AMTTB) loyihasining 1-bo'limida to'liq keltirilgan. Ushbu mintaqada sharq shamollari ustunlik qiladi, ularning o'rtacha yillik miqdori 25,0%ni tashkil qiladi. Mazkur mintaqada sizot suvlari yer sathidan 10-12 metr chuqurlikda joylashgan. Obyekt yaqinida yirik ochiq suv havzalari mavjud emas.

Elektr liniyasining umumiy uzunligi 71,2 km, shundan Nurobod tumani hududida 61,8 km, Pastdarg'om tumani hududida - 9,4 km. Elektr liniyasi uchun jami 2866822,0m² yer ajratiladi, shundan doimiy foydalanish uchun (simyog'ochlar va himoya zonasi uchun) 32422 m² (Nurobod tumanida 28258,0 m², Pastdarg'om

tumanida 4164,0 m²); vaqtincha foydalanishga (qurilish davrida) – 2834400,0 m² (Nurobod tumanida 2456240,0 m², Pastdarg‘om tumanida 378160,0 m²). Qurilish davrida eni 15 metr bo‘lgan yer maydoni vaqtincha ajratiladi. Ushbu masofa yuqori kuchlanishli elektr liniyasi va atrofdagi bino-inshootlar o‘rtasida xavfsiz hududni tashkil etadi, shuningdek elektr ustunlarini ta‘mirlash imkonini beradi.

Loyihaga Nurobod tumani, “Sazag‘an”, “Saroy”, “Chortut”, “Chorvador”, “Olg‘a” MFYlar hududida 2023-yil 14-iyulda, va Pastdarg‘om tumani “Elbek” MFYda 2023-yil 20-sentabrda o‘tkazilgan jamoatchilik eshituvi yig‘ilish bayoni ilova qilingan. Unda tuman hokimliklari vakillari, tuman ekologiya, atrof muhitgini muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi vakillari, mahalla raislari va mahalliy aholi vakillari ishtirok etib, obyektning qurilishiga e‘tirozi yo‘qligi ko‘rsatilgan.

Elektr liniyasini tortish trassasi bo‘ylab aholi uy-joylari joylashmagan, shu sababli uy-joylarni ko‘chirish ko‘zda tutilmagan.

Elektr liniyasining qurilish jarayonida ustunlarning fundamenti uchun chuqur qazish, montaj qilish maydonchalari va vaqtincha foydalaniladigan yo‘llarni tashkil etish natijasida relefning mexanik buzilishi, yerlarni cho‘kish va erroziya holati kuzatiladi. Bularning oldini olish maqsadida chuqurliklarga qazib olingan tuproqni qaytarib trombovka qilish, kesib olingan hosildor yer qatlamini o‘z joyiga qaytarish choralari ko‘riladi. Buning uchun qurilish ishlarini boshlashdan oldin yerning hosildor 20-30 sm. qatlamini kesib olib, qurilish maydonining chetida saqlash va ishlar tugashi bilan ularni o‘z o‘rniga qaytarish ishlari amalga oshiriladi. Qurilish montaj ishlari (elektr simlari tortish, ustunlarni ko‘tarish) tugagandan so‘ng, sinash ishlari amalga oshirilib, liniya ishga tushiriladi.

Qurilish ishlari tugatilgandan so‘ng, rekultivatsiya ishlari bajarilib, yerlar o‘z egalariga qaytarilishi rejalashtirilgan.

Obyekt qurilishi jarayonida ichimlik-xo‘jalik maqsadlarida sarflanadigan suv maxsus idishlarda tashib keltiriladi. Hosil bo‘ladigan maishiy oqovalar uchun biotualet o‘rnatish rejalashtirilgan.

Qurilishda 15 kishining 1 oy davomida ishlashi rejalashtirilgan bo‘lib, qurilish maydonida ishchilar uchun uy-vagon tashkillashtiriladi. Obyekt qurilishi jarayonida ichimlik-xo‘jalik maqsadlarida sarflanadigan suv maxsus idishlarda tashib keltiriladi. Hosil bo‘ladigan maishiy oqovalar uchun biotualet o‘rnatish rejalashtirilgan. Qurilish maydonida changni bostirish ishlari uchun sarflanadigan suv miqdori jami 690,0m³ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 0236-07-sonli sanitariya-gigiena me‘yor qoidalarida rejalashtirilayotgan 220 IV elektr liniyasining sanitar himoya mintaqasi trassaning har ikkala tomonidan 15 metr deb ko‘rsatilgan. Ko‘rib chiqilayotgan elektr liniyasining har ikkala tomonidan uning himoya zonasi saqlangan. Eng yaqin aholi turar-joy uylari obyekt chegarasining sharq tomonida 125 metr masofada joylashgan.

Elektr liniyasi o'z yo'lida mahalliy asfalt yo'l (bu yo'l A378 yo'li bilan tutashadi), Sazag'an soyi, "Sho'rtan-Sirdaryo" $Du=1022$ mm, gaz tarmog'idan chiqadigan kichik tarmoq kabi obyektlar bilan kesishadi. "O'ztransgaz" AJning loyihaga ilova qilingan xatiga asosan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan "Sho'rtan-Sirdaryo" gaz tarmog'ining himoya zonalarini saqlangan. Trassaning Sazag'an soyi bilan kesishgan nuqtasida Sazag'an soyining himoya mintaqasi saqlangan holda o'tkazilishi rejalashtirilgan. Trassaning asosiy qismi cho'l zonasidan o'tadi, daraxtlar va o'simliklarning noyob turlari o'sadigan, hayvonot olamining noyob vakillari yashaydigan massivlardan, qishloq xo'jaligi yerlaridan, milliy bog'lar va qo'riqxonalar hududidan o'tmaydi.

Qurilish jarayonida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar faqatgina qurilish jarayonida ishlaydigan maxsus texnika va avtotransport vositalarining harakatlanishi natijasida kutiladi. Obyektning ishlashi jarayonida atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar tashlanmaydi.

Loyiha hujjatida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlar, hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan avariya holatlar, yong'in xavfsizligi va ularning oldini olish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Davlat ekologik ekspertizasining tahliliy natijalariga ko'ra, ko'rib chiqish uchun taqdim qilingan "Atrof muhitga ta'siri to'g'risida bayonot" (AMTTB) loyiha hujjatlari amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonuni, Nizom hamda qonunosti ekologik me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi aniqlandi.

"Davlat ekologik ekspertiza markazi" DM Samarqand viloyati filiali "ACWA Power" kompaniyasi tomonidan qurilish davrida atmosfera tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalarning belgilangan me'yordan (kvota) oshirmaslik, ochiq suv havzalariga oqova suvlarni tashlamaslik, tanlangan yer maydonida hududdagi mavjud ekologik holatning yomonlashuviga olib kelmaslik shartlari bajarilgandagina obyekt tashkil qilinishiga ekologik nuqtai nazardan e'tiroz bildirmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Davlat ekologik ekspertiza markazi" DM Samarqand viloyati filiali Pastdarg'om tumani hududida 500/220 kVt quvvatga ega yangi "Nurobod" podstantsiyasi va Nurobod va Pastdarg'om tumanlari hududidan o'tuvchi 71 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish liniyasini qurilishi uchun ishlab chiqilgan "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risida bayonot" (AMTTB) loyihasini **ushbu xulosada ko'rsatilgan talablarni bajarish sharti bilan ma'qullaydi.**

"Acwa Power" kompaniyasi rahbariyati quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- Nimstansiya va elektr liniyasini joylashtirish jarayoni (qurilish)da SanQvaM-0350-2017-va 0236-07-sonli sanitariya norma va qoidalariga rioya qilgan holda tashkil qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2021-yil 30-dekabrda PF-46-sonli Farmonida ko‘rsatilgan talablarga amal qilish;

- obyekt qurilishi davrida atrofdagi mavjud daraxtlarni kesilishiga yo‘l qo‘yilmasin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-46-sonli Farmoni 2- bandi Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan bo‘lib, atrofdagi daraxtlarning o‘svuchanlik darajasiga va kesilishiga yo‘l qo‘yilmasin;

- tanlangan hududda ko‘p yillik daraxtlar va butalar mavjud bo‘lgan taqdirda, ularni saqlab qolish bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar ishlab chiqish shart;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-yanvardagi 40-sonli "Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi nizom talablariga amal qilish, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktabrdagi 787-sonli "Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi nizomga muvofiq tasdiqlangan "Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish qoidolari"ga asosan ishlarni tashkil etish;

- qurilish davrida maishiy chiqindilarni to‘plash va vaqtincha saqlash uchun maxsus punktlarni tashkil etish (standart bo‘yicha), ularning xili bo‘yicha alohida idishlarda yig‘ilishini ta‘minlash va ularni olib chiqish bo‘yicha ixtisoslashgan maxsus tashkilotlar bilan shartnoma tuzish;

- qurilish jarayonida maydonda changni bostirish tadbirlarini amalga oshirish;

- qurilish jarayoni tugaguniga qadar chiqindilarning xavfsiz shart-sharoitda to‘planishi, saqlash maydonida ekologik normadan oshiq joylashtirilmasligi, o‘z vaqtida utilizatsiya qilinishini doimiy nazoratda tutish;

- chiqindilarni xavflilik darajasi va turiga qarab ajratgan holda to‘plash va vaqtincha saqlashga mo‘ljallangan maxsus punkt (MSP) tashkil etish hamda qattiq qoplamali maydonchalarda zarur miqdordagi qopqoqli konteynerlar o‘rnatish;

- sanitar tozalash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan korxona bilan tuzilgan shartnomaga binoan maishiy chiqindilarning o‘z vaqtida olib ketilishini ta‘minlash;

- chiqindilar miqdorini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda tadbiq etish;

- qurilish davrida maxsus texnika va avtotransport vositalarini soz holda tutish, muntazam ravishda texnik xizmat ko‘rigidan o‘tkazish ishlarini doimiy ravishda amalga oshirishi lozim.

Qurilishi rejalashtirilayotgan 71km. uzunlikdagi VL 220 kV elektr liniyasini qurilishi tugallangandan so'ng, obyektning faoliyati davrida atrof muhitni ifloslantiruvchi statsionar manbalar yo'qligi sababli, atrof muhitga ta'sir ko'rsatishning keyingi bosqichi - ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonoti (EOTB) ekologik normativ loyihasini ishlab chiqish zarurati yo'q.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishini eslatib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonunning 22-moddasiga binoan, ushbu obyektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida Davlat ekologik ekspertizasining bergan xulosasi, berilgan kundan e'tiboran **3 yil** mobaynida yuridik kuchga ega.

Ushbu xulosa faqatgina Pastdarg'om tumani hududida 500/220 kVt quvvatga ega yangi "Nurobod" podstansiyasi va Nurobod va Pastdarg'om tumanlari hududidan o'tuvchi 71 km uzunlikdagi 220 kV kuchlanishli havo elektr uzatish liniyasi qurilishi uchun berildi. Xulosada ko'rsatilgan shartlar bajarilmaganda va yuqorida ko'rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo'shimcha faoliyat turlari tashkil etilganda, tashlamalar va chiqindilar miqdori o'zgargan taqdirda, ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o'z kuchini yo'qotadi.

Ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko'zda tutilmagan faoliyat turlari bilan shug'illanish, yangi qurilish, qayta tiklash, kengaytirish ishlarini amalga oshirilishi va boshqa faoliyat turidan foydalanish ko'zlangan taqdirda "Atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" (AMTTB) loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Davlat ekologik ekspertizasiga taqdim qilinishi hamda tegishli xulosa olinishi shart.

Samarqand viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining Pastdarg'om va Nurobod tumanlari inspeksiyasiga "Acwa Power" kompaniyasi tomonidan obyektning qurilishi davrida ekologik qonunlari va me'yorlariga rioya etilishi ustidan muntazam nazoratga olishi yuklatiladi.



ЭЛЕКТРОН РАҚАМЛИ ИМЗОЛАР:

1. BUMATOVA XURSHEDA MERGANOVNA (стир: 41702663820058
сана: 27.02.2024 11:18:18)
2. PO'LOTOV JAXONGIR FARXOD O'G'LI (стир: 31309943950059
сана: 27.02.2024 12:36:29)